

“O‘ZBEK PEDAGOGIKASI YANGI ZAMON NIGOHIDA:YUKSAK TA‘LIM VA RIVOJLANISH”**Muhammedov Vohidjon***O‘zbekiston Milliy universiteti
tarix fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Pedagogik nazariya va qarashlar,shu jumladan o‘zbek pedagogikasi rivojlanishi yo‘lidagi dastlabki qaror va izlanishlar,uning tarixiy ildizlari, asosiy vazifa,g‘oyalari yoritilgan.Xususan ta‘limga oid qonunlar va ularning tahlili,pedagogik metodologiya,tajribalar almashinuvi va sohadagi nazariyalar haqida fikr yuritilib ,hozirgi zamondagi pedagogik faoliyat haqida zarur xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *Intellectual pedagogika,jadid maktablari,rivojlangan ta‘lim uslublari,“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, metodologiya, shaxs ijtimoiylashuvi.*

Abstact: *Pedagogical theory and views, including initial decisions and researches on the way to the development of Uzbek pedagogy, its historical roots, main tasks and ideas are covered. In particular, laws related to education and their analysis, pedagogical methodology, exchange of experiences and theories in the field were discussed and the necessary conclusions were made about the current pedagogical activity.*

Keywords: *Intellectual pedagogy, modern schools, developed educational methods, “National personnel training program”, methodology, personal socialization.*

KIRISH

Har bir davlatning jahondagi o‘rni va mavqei uning ta‘lim tizimi rivojlanganligiga bog‘liqdir.Ko‘p asrlar avval bo‘lgani kabi hozir ham ilmiy- g‘oyaviy rivojlanish,ma‘lum sohadagi ulkan tadqiqotlar yurtning kelajagiga ulkan hissa qo‘shib uni har jabhada yetakchi o‘rinlarga ko‘targan.Insoniyat yashash tarzi turmush faoliyati o‘zgarishi va aqliy qobilyati oshib jamiyat rivojlanishi natijasida turli fanlar yuzaga keladi va pedagogika inson hayotida ma‘lum bir o‘rinni egallashni boshlaydi.Ta‘lim va tarbiyaga doir qarashlar majmui shakllanadi.Ammo pedagogika dastlab nazariy bilimlar majmui sifatida emas balki milliy mafkuraviy g‘oyalar,aqidalar va hikmatlar tarzida namoyon bo‘ladi.Qadimgi dunyo va antik davrdagi mutafakkirlarning talimtarbiya borasidagi falsafiy qarashlari markazida yetuk insonni tarbiyalash maqsadi yotgan.Ularning fikrlariga ko‘ra har tomonlama shakllangan inson jamiyatni adolatli boshqarishi va uni izchil rivojlanish sari yetaklashi mumkin.Qadim zamonlarda paydo bo‘lgan pedagogik g‘oyalar ko‘proq amaliy ahamiyatga ega bo‘lsada keyinchalik pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.Qadimgi Sharq,Hindiston, Xitoy va O‘rta Osiyodagi madaniymarifiy obidalar moddiy madaniyat namunlari bo‘libgina qolmasdan o‘z davrining buyuk pedagogik merosi hamdir.Shu bilan birga davlatimizning pedagogik sohasi ham juda ko‘p vaqtdan buyon shakllanib ma‘lum

bosqichlarni boshdan kechirgan. Xususan o'zbek pedagogikasi juda ham qadim tarixga ega bo'lib uning dastlabki ildizlari Avesto, O'rxun-Enasoy bitiklariga borib taqaladi. Avestoda ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z haqidagi kishilarga ma'rifat berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib olingan. Pedagogik nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak dastavval madrasa va maktabxonalar holida tashkil topgan ta'lim dargohlari keyinchalik zamonaviylashib yangicha ko'rinish kasb eta boshladi. Aynan Turkistonimizda 20-asr boshida zamonaviylashgan maktablarning birinchilari bu yangi usul maktablaridir. Asosan 20-asr boshida keng yoyilgan bunday maktablarda jadidlarimiz o'zbek pedagogikasining dastlabki asoslarini yaratishdi. Bizga ma'lumki o'sha davrlarda Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan edi. Ruslar o'lkamizda o'z boshqaruv tizimlarini joriy qilish bilan birgalikda, ta'lim tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishdi. Bunda dastlab rus tuzem maktablarini ochishga katta e'tibor qaratishdi. Ammo jadid ma'rifatparvarlarimiz ham yangi usul maktablarida faol vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda davom ettirdilar. Bugungi kunda Oliy ta'lim muassalariga kirayotgan ko'pchilik abituryentlar pedagogika sohasini tanlamoqda. Shu jumladan oliy ta'limdagi ko'pgina o'zgarishlar, intellektual rivojlanish va samarali dasturlar asosida orqali pedagogika ilg'or natijalarga erishmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yetakchi kadrlarni tayyorlash dasturiga ko'ra 2011-2016- yillarda zarur sharoitlar ta'minlab berildi. Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qarorlarda quyidagilar belgilab berildi. Xususan, oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda intellektual parametrlarni tashkil qilish, ma'lum ixtisoslik bo'yicha o'qitishda ularni ilmiy-g'oyaviy, amaliy ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish. Oliy ta'limdagi o'quv rejalarining pedagogik qirralarini va pedagog kadrlar tayyorlashning yangi usullarini joriy qilish, chet elda ilg'or pedagog kadrlarimizning mahoratini stajirovkasini oshirish kabilar maqsad qilindi. Bilamizki dunyoda ta'lim tizimining rivojlangan darajasi Finlandiya davlatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerdagi pedagogik salohiyat, intellektual jonlanish asosan yuqori bosqichdadir. Hozirgi paytda O'zbekistonda bu davlatdagi ta'lim tizimi bilan tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda Davlat test markazi faoliyati va oliy ta'limga kirish shart sharoitlarida ilg'or rivojlanish ko'zga tashlanadi. Bunga misol qilib aytish mumkinki, ilgari Oliy talim muassasasining faqat bittasiga kirish imkoni berilgan bo'lsa, prezidentimizning sa'y harakatlari va yosh kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojni hisobga olgan holda bir emas beshta oliygohga hujjat topshirish imkoni berildi. O'zbek pedagogikasini rivojlantirishdan maqsad yetishib chiqayotgan pedagog kadrlarni yanada tajribali, o'z sohasida prinsipial va intellektual mahorat bilan yondasha oladigan qilib tayyorlashdir. Nimaga aynan biz bu sohaga urg'u beryapmiz chunki o'sha biz bilgan prokuror, advokat yoki diplomatlarga ham dastlabki bosqichlarda pedagog xodimlar tomonidan ma'lum ilmiy va amaliy ko'nikmalar berilib ular shu sohaga tayyorlanadi, tajribasi oshiriladi. Buning uchun esa, albatta, pedagoglarning o'zi ham yetarli

tajribaga ega bo'lishlari shart. Shuning uchun oliy o'quv yurtlaridagi 2-4 kurs talabalari haftada 4+2 shaklida amaliyot o'tashadi. Ya'ni ular hafta davomida 4 kun OTM larda dars o'tilib, keyingi 2 kunda maktab va bog'chalarda amaliyot o'tashadi. Oliy ta'lim muassasasidagi ma'lum ixtisoslikdagi kafedradagi o'qituvchi professorlarning bir qismi chet elga tajriba oshirishga yuboriladi. Bugungi o'zbek pedagogikasida ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlari ko'zda tutiladi. Bolalar va yoshlar pedagogik jarayonning obyektigina emas balki subyekti ya'ni ijrochisi ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirgi pedagogikamizda muayyan bilimlar majmui emas balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikamizda bilimli o'quvchilarni tayyorlash bilan birga, izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Rossiya bosqini va sho'rolar zamonida pedagogikamiz kuchli tanazzulni boshdan kechirdi. Bu davrda o'zbek pedagogikasi to'lig'icha g'arbiy asoslarga ega, begona tamoyillardan iborat edi. Unda millatimizning ma'naviy tajribasi, asrlar davomida shaklangan an'analari hisobga olinmadi. Shuning uchun ham to'liq dahriylik asosiga qurilgan begona pedagogikadan ko'zlangan natijaga erisha olmadi. O'zbekiston mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong bo'g'ilishdan, tashqi bosimlardan xalos bo'ldi. Bu hol pedagogikamizning aql, milliy ruhiyat va qadriyatlarimizga mos ravishda qayta rivojlantirishga asos bo'ldi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimovning ma'naviyat va ta'litarbiya to'g'risidagi bir qancha fikrlarini keltirib o'tsak adashmagan bo'lamiz: "Mamlakatimizda demokratik huquqiy davlar va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahmiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni tarbiyalashda sog'lim ijtimoiy muhitni yaratish, ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umum insoniy qadriyatlarni tiklash e'zozlash muhimdir. Prezidentimiz aytganidek faqat ma'rifatli odam inson qadrini millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda o'zligini anglashi, ozod va farovon jamiyatda yashash, mustaqil yurtimizni jahon hamjamiyatida munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Modomiki zamon jadal sur'atlar bilan o'zgaryabdimi demak pedagogika ham unga mos ravishda hamohang taraqqiy etishi lozim. Birinchi prezidentimiz o'zining "Asosiy vazifamiz—vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" asarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib 21-asr talablariga javob bera oladigan barkamol avlod bo'lib yetishishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz." Bu aslida haqiqat ya'ni yetishib kelyotgan kelajak avlodning yaxshi tarbiya topishi ko'p jihatdan mamalakatimizning ertangi kuni bilan bevosita bog'liqdir. Yurtboshimiz "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi— bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"— deya ta'kidlagan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida 1997- yil 29-avgustda yangi tahrirda "Ta'lim to'g'rusidagi" qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Qonunga muvofiq milliy tajribaning tahlili va ta'lim

tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda umumiy va kasb hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollika, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir."- deyiladi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida". Bu dasturning asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iboratdir:

1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyektidir. Ta'lim sohasidagi xizmatlar iste'molchisi va ularni faol amalga oshiruvchisidir. Ya'ni shaxs uzluksiz ta'lim jarayonlarida diniy va dunyoviy bilimlar bilan tanishadi, fan asoslarini puxta egallaydi va shu bilan birga ijtimoiy ta'sirlar yordamida o'zining ma'naviy- axloqiy sifatlarini tarbiyalab boradi. "Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, fan, madaniyat, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi hamda o'z bilim va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi."- deyiladi qarorda.

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir. Shaxsning yetuk ma'rifatli bo'lishi nafaqat o'zi uchun balki davlat va jamiyat uchun ham zarurdir. Zeroki fuqarolari yuksak ma'naviyatli bo'lgan jamiyat tez tarraqqiy qiladi. Shunday ekan har qanday jamiyat o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, o'z iqtidor va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun yetarli darajada zarur shart sharoitlar yaratib berishi lozim.

Bugungi kun pedagogikasi asosli ravishda shuni ta'kidlaydiki ta'lim sifati avvalombor dars sifatiga bog'liqdir. Faqat dars mashg'ulotlari pedagogik jarayonlarni oqimini boshqarib turadi. Darsning tarbiyaviy vazifasi asosan o'quvchining dunyo qarashini shakllantirish, ularni ijtimoiy-iqtisidiy hayotda o'z o'rnini egallash yo'l yo'riqlarini o'rgatishdan iboratdir. Darsning rejalashtiruvchi vazifasi esa o'quvchilarga o'rgatilayotgan materialning mohiyatini eng muhim jihatlarigacha tushuntirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, nutqini rivojlantirish kabilarni o'z ichiga oladi. Tajribali o'qituvchilar dars materiallarining eng muhim joylarini ajratib ko'rsata oladilar va asosiy urg'u nimaga berish kerakligini oldindan rejalashtirishadi. Pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb bo'lib qolayotgan muammolarni yechish bilan birgalikda xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika metodologiyasini belgilab olishimiz zarur. Metodologiya yunoncha "method" va "logos" so'zlaridan olingan bo'lib usul, amaliyotlar haqidagi ta'limot degan ma'noni beradi. Bu birinchidan pedagogik nazariyalar ishonchliligini ta'minlasa boshqa tomondan metodologik bilimlar pedagogik amaliyotlarni samarali tashkil etish va uni tatbiq etish uchun zamin hozirlaydi. Metodologiya tushunchasi murakkab va har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Hozirgi kunda pedagogika fanning asosi falsafadir. Falsafaning bosh masalasi obyektiv borliq va inson orasidagi o'za aloqani oydinlashtirish hisoblanadi. Metodologiya obyektiv borliqni bilish haqidagi ta'limotdir. Tor ma'noda esa aniq ilmiy fanlar shu jumladan pedagogik bilish nazariyasi hisoblanadi. Xuddi shunday metodologik g'oyalar asosida

shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi yuz beradi. Buni kengroq yoritadigan bo'lsak, ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy axloqiy qadriyatlar, xulq atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashning boyish jarayoni va natijasidir. Shunday qilib, shaxsning o'zini anglay bilishi, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo'lgan ichki obrazi- "Men"ning ijtimoiy pedagogik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillarining ahamiyatini yuksaltiradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda tarbiyani shaxsning o'zi va o'z sifatлари to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanish jarayonidir deb ta'riflash mumkindir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva Shahzoda, Askarov Abror "Umumiy oedagogika" Toshkent, 2019
2. Sh. Usanov, V. Ahrorov "Umumiy pedagogika fanidan ta'lim texnologiyasi" (Nashr yili va joyi ko'rsatilmagan)
3. Hamrayeva Aziza Farhodovna "Uzluksiz ta'lim jarayonida pedagog o'rni" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. Jizzax, 2013
4. Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich-TDPU rektorining maqolalaridan foydalanildi.